



## 8-10 YOSHLI FUTBOLCHILARNING TEXNIK - TAKTIK TAYYORGARLIGINI BAHOLASH.

**Erkinov Bunyod Erkinovich**

*Abu Rayhon Beruniy Urganch davlat universiteti Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti tyutori*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada yosh futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligining samaradorligini oshirilishi testlar yordamida aniqlandi. Ayniqsa yosh futbolchilarni mahoratini yaxshilash uchun mashg'ulotlar individual, guruh va jamoali o'yinlar orqali mash'ulot jarayonlari olib borildi.*

**Аннотация.** *В данной статье с помощью тестов определено повышение эффективности технико-тактической подготовки юных футболистов. В целях повышения мастерства юных игроков тренировочный процесс проводился через индивидуальные, групповые и командные игры.*

**Kalit so'zlar:** *Texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, Umumiy va maxsus tayyorgarlik, ruhiy tayyorgarlik.*

**Ключевые слова:** *Технической подготовка, тактической подготовка, Физической подготовка.*

**Kirish.** *Yosh futbolchilarning sport tayyorgarligi - bu barcha zarur vositalar, usullar, shart-sharoitlar to'plamidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan va yuqori sport mahoratiga erishishga qaratilgan uzoq muddatli maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon. Sport tayyorgarligining maqsad va vazifalari ta'lim, tarbiya va mashg'ulotlar jarayonida hal etiladi. O'rgatish kerakli bilim, ko'nikma va malakalar tizimini o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichi deb tushunish odat tusiga aylangan. Mashg'ulotning asosiy mazmuni "maktab" ni, ya'ni texnikani, asosiy individual va guruh taktik harakatlarini, taktik mahoratni, maxsus jismoniy va ruhiy sifatlarni o'zlashtirishdan iborat.*

**Tadqiqot maqsadi.** *Mashg'ulotni shunday tashkil qilish kerakki, yuqori sport natijalarini ko'rsatib, yosh sportchilar jismoniy sog'lig'ini saqlab qolish va tanlagan sport turi bo'yicha mashg'ulotlarga qiziqishi yuqori bo'lsin. Yosh futbolchilarni tarbiyalashda yosh xususiyatlarini hisobga olish va zamonaviy fanning turli bo'limlarida ishlab chiqilgan yosh davriyligiga tayanish muhimdir.*

*Tayyorgarlik bosqichlarining davomiyligi quyidagicha keltirilgan. O'quv jarayoni 52 haftalik yillik o'quv rejasiga muvofiq qurilgan har bir mashqning haqiqiy mashg'ulotlar samarasiga qarab tayyorgarliklar sport tayyorgarligi turlariga bo'linadi. Ko'pgina futbol mashqlarining mashg'ulot samaradorligi ko'p qirrali. Har bir mashqning haqiqiy mashg'ulotlar samarasiga qarab tayyorgarliklar sport tayyorgarligi turlariga bo'linadi.*



8-10 yoshli futbolchilar mashg'ulot olib boradigan sport ixtisosligi, bu mashg'ulotlar umumiy hajmining 26-34 foizini tashkil qiladi.

**Tadqiqot tashkil qilish uslublari.** Yosh futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarligini, texnik tayyorgarligini, taktik tayyorgarligini, psixologik tayyorgarligini oshirish maqsadida harakatli o'yinlardan 10 ta va maxsus mashqlardan 10 tasi tanlab olindi va shu bo'yicha mashg'ulot jarayoni tashkil qilib tadqiqot olib borildi. Nazorat guruhi va Tadqiqot guruhidagi yosh futbolchilar quyidagi test ko'rsatkichlarini ko'rsatishdi.

8-10 yoshli futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligi nazorat mashqlari yordamida baholandi. Shaxsiy texnik-taktik tayyorgarlik va guruh texnik-taktik harakatlarini o'zlashtirish darajasi baholandi.

Yosh futbolchilarning individual texnik va taktik tayyorgarlik darajasi quyidagi testlar yordamida aniqlandi:

1) 10 m masofadan darvoza tomon zarbalarni o'ng va chap oyoqlari bilan 5 ta zarba aniqligi bilan bajarish. Darvozaga urilganlarning umumiy soni hisobga olindi;

2) start chizig'idan (jarima maydonchasi chizig'idan 30 m masofada) quyidagilar bajariladi: to'pni olib yurish - 20 m, 4 ustun atrofida aylanib o'tish, jarima maydoni chizig'idan darvozaga zarba berish. Boshidan darvoza chizig'ini to'p kesib o'tishga qadar bo'lgan vaqt qayd etiladi;

3) To'p bilan jonglyorlik - to'pni havoda o'ng va chap oyoq, son va bosh bilan urib turish. Har qanday tartibda urishga ruxsat beriladi. Hisobga olish turli usullar bilan bajariladigan zarbalar soni bo'yicha amalga oshiriladi.

Guruh texnik va taktik harakatlarini bilish darajasini aniqlash uchun quyidagi testlardan foydalanildi:

1) To'pni chap va o'ng oyoqlari harakati bilan uzatishni aniqligi, uzatish uzunligi 10 metr. Chap va o'ng oyoq bilan 5 ta uzatma. Aniq uzatmalar soni hisobga olindi.

2) 2x2 metr kvadratga to'pni yuqordan 15 metrdan uzatish. Chap va o'ng oyoq bilan 5 ta uzatish. Kvadratga tushganlar soni hisobga olindi.

Pedagogik tajriba boshlanishidan oldin yosh futbolchilarning texnik va taktik mahorat darajasi aniqlandi.

Olingan ma'lumotlar matematik statistika usullari yordamida qayta ishlandi, har bir ko'rsatkich uchun o'rtacha qiymat va o'rtacha xatoligi aniqlandi. **(1-jadval).**

**Pedagogik tajriba boshlanishidan oldin futbolchilarning texnik va taktik harakatlarini o'zlashtirish darajasi.**

№	Sinov nomi	Daraja, $x \pm m$
1.	Darvoza tomon zarbalar, aniq zarbalar soni	$4,5 \pm 0,5$
2.	To'pni olib yurish, sek	$6,2 \pm 0,4$
3.	To'p bilan jonglyorlik, zarbalar soni	$9,1 \pm 0,8$
4.	To'pni harakatda uzatish, sonda	$4,5 \pm 0,3$
5.	To'pni kvadratga uzatish, urilganlar soni	$4,3 \pm 0,3$



**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** Pedagogik tajribadan so'ng yosh futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini takroriy sinovdan o'tkazildi. Sinov bayonnomasi 2-ildoda keltirilgan. O'rtacha test natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Pedagogik tajribadan oldin va keyin barcha harakatlarda futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligi ko'rsatkichlarini taqqoslaganda rivojlanish darajasidagi sezilarli farqlar aniqlandi.

Texnik va taktik tayyorgarlik darajasini taqqoslash 2-jadvalda keltirilgan.

### 2-Jadval

**Pedagogik tajribadan so'ng futbolchilarning texnik va taktik harakatlarini o'zlashtirish darajasi**

№	Sinov nomi	Daraja, $x \pm m$
1.	Darvoza tomon zarbalar, aniq zarbalar soni	7,7±0,9
2.	To'pni olib yurish, sek	5.6 ± 0.6
3.	To'p bilan jonglyorlik, zarbalar soni	14,3±1,0
4.	To'pni harakatda uzatish, sonda	8,1±0,9
5.	To'pni kvadratga uzatish, urilganlar soni	7,9±0,9

Mashg'ulotlar boshlanganidan 4 oy o'tgach, taklif qilingan metodikadan foydalangan holda texnik va taktik tayyorgarlik darajasini aniqlash natijasida guruhda texnik va taktik harakatlarni o'zlashtirish darajasining barcha o'rganilgan ko'rsatkichlarida sezilarli yaxshilanishlar bo'lganligi aniqlandi .

Shuningdek, pedagogik tajriba boshlanishidan oldin va undan keyingi 8-10 yoshdagi yosh futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarlik darajasi bilan taqqoslash o'tkazildi (3-jadval).

### 3-Jadval

**Pedagogik tajriba natijalariga ko'ra futbolchilarning texnik va taktik harakatlarini o'zlashtirish darajasining o'zgarishi**

№	Sinov nomi	Tajribadan	Tajribadan	p
1.	Darvoza tomon zarbalar, aniq zar soni	4,5 ± 0,5	7,7±0,9	<0,05
2.	To'pni olib yurish, sek	6,2±0,4	5.6 ± 0.6	<0,05
3.	To'p bilan jonglyorlik, zarbalar soni	9.1 ± 0.8	14,3±1,0	<0,05
4.	To'pni harakatda uzatish, sonda	4,5 ± 0,3	8,1±0,9	<0,05
5.	To'pni kvadratga uzatish, urilganlar soni	4,3 ± 0,3	7,9±0,9	<0,05

Pedagogik tajriba natijalariga ko'ra futbolchilarning texnik va taktik harakatlarini o'zlashtirish darajasining o'zgarish ko'rsatkichlari.

Pedagogik tajriba jarayonida yosh futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida taklif qilingan metodikadan foydalanildi. Shunday qilib, biz taklif qilgan texnik va taktik tayyorgarlik mashg'ulotlari yosh futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini tez va samarali ravishda oshirishimizga imkon beradi deb aytish mumkin.



### Xulosalar

1. 8-10 yoshdagi yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorgarlik mashg'ulotlarining tajriba metodikasi mashg'ulotlar jarayonida maxsus ishlab chiqilgan mashqlardan foydalanishga asoslangan. Maxsus mashqlar to'plamidan foydalanish futbolning texnik va taktik harakatlarini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi, ya'ni texnik va taktik mahorat tezroq, yaxshiroq va kam vaqt sarflab shakllanadi.

2. Biz taklif qilgan mashqlar asosiy texnik va taktik harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan edi. Individual - tepish, to'pni olib yurish, jonglyorlik; va guruhli - to'pni harakatda uzatish.

3. Taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini aniqlash uchun biz pedagogik tajribadan oldin va keyin texnik va taktik harakatlarni o'zlashtirish darajasini sinov natijalarini taqqosladik.

4. Harakatlar yosh sportchilar tomonidan ancha yaxshi bajarilganligi aniqlandi. Matematik statistika usullari biz ishlab chiqqan metodika bo'yicha shug'ullangan yosh futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligi darajasida sezilarli farqlarni aniqladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулкадыров А.Л. Соотношение физической и технической подготовки юных футболистов 8-10 лет на этапе начальной спортивной специализации: 1985. – 18 с..

2. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanoma . Toshkent.2011.

3. Аверин, В. А. Психология детей и подростков / В. А. Аверин. – М.: Издательство Михайлова В. А., 1998. – 379 с.

4. Алабин, В. Г., Алабин, А. В., Бизин, В.П. Многолетняя тренировка юных спортсменов / В. Г. Алабин, А. В. Алабин, В. П. Бизин – М., 1994. – 244 с.

5. Akramov J.A Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatning xususiyatlari. G'G' Fan-sporga №1 -2007 y.

6. Ашмарин, Б. А Теория и методики физического воспитания : Учеб. для студентов фак. физ. культуры пед. ин-тов по спец. / Б. А. Ашмарин, Ю. А. Виноградов, З. Н. Вяткина и др.; Под ред. Б. А. Ашмарина. – М.: Просвещение, 1990. – 287 с.

7. Бабуджан С.Т. Исследование путей совершенствования точности ударных действий футболистов в специальных заданиях: 1978. – 23 с.

8. Банников, С. Е. Футбол. Учебно-методическое пособие / С Е. Банников, Р. И. Минязев, А. Г. Босоногов, Н. А. Стаин. – Екатеринбург, ГОУ ВПО УГТУ-УПИ, 2006. – 102 с.